UZCE
National Clearing Center
Clearinghouse · CCP

"MILLIY KLIRING MARKAZI" AKSIYADORLIK JAMIYATI

2024 y. «12» noyabr
№ 15

Toshkent sh

Tijorat banklariga

"Milliy kliring markazi" AJ vaqtincha bo'sh pul mablag'larini tanlov asosida tijorat banklarining depozit qo'yilmalariga joylashtirish masalasini ko'rib chiqishni rejalashtirmoqda.

Shu munosabat bilan, Sizdan quyidagi talab va shartlarga muvofiq tijorat taklifi hamda zarur hujjatlarni taqdim qilishingizni so'raymiz.

Hujjatlar:

1) Oxirgi moliyaviy yil uchun moliyaviy hisobotlar nusxalari (1 va 2-sonli shakllar).

2) Kreditga layoqatlilik reyting bahosi mavjudligini tasdiqlovchi quyidagi xalqaro reyting agentliklarining hujjatlari nusxasi:

- Standard & Poor's - B darajadan past bo'lmagan, prognoz «barqaror»;
- Moody's – B2 darajadan past bo'lmagan, prognoz «barqaror»;
- Fitch Ratings - B darajadan past bo'lmagan, prognoz «barqaror».

3) Jami kapital miqdori to'g'risida ma'lumot (jami kapital 200 mlrd. so'mdan kam bo'lmasligi kerak).

Vaqtincha bo'sh pul mablag'larini joylashtirish uchun tijorat banklariga qo'yiladigan talablar:

1) O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan bankning faoliyatini to'xtatib turishni nazarda tutuvchi yoki umuman bank bo'yicha biron-bir operatsiyalar turini amalga oshirishni taqiqlovchi sanksiyalarning mavjud emasligi.

2) Oxirgi 12 oy davomida, miqdori va turidan qat'iy nazar, jalb qilingan depozitlar bo'yicha 10 kundan ortiq muddati o'tgan to'lovlarning mavjud emasligi.

3) Tijorat bankining faoliyat yuritish muddati (O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan ro'yxatga olingan sanadan e'tiboran uch yildan kam bo'lmagan muddat).

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan ro'yxatga olingani to'g'risidagi guvohnoma va bank amaliyotini amalga oshirish uchun litsenziya nusxalari taqdim etiladi.

Milliy kliring markazining vaqtincha bo‘sh pul mablag‘larini ishonchli joylashtirilishini ta’minlash uchun asosiy tamoyillar va shartlar:

1) Tijorat banklarining depozitlariga pul mablag‘larini joylashtirish qaytarish, to‘lash, likvidlik va diversifikatsiya tamoyillari asosida amalga oshiriladi.

2) Tijorat banklariga pul mablag‘larini joylashtirishda asosiy shart majburiyatlar bo‘yicha o‘z vaqtida to‘lovlarni amalga oshirish hisoblanadi.

3) Milliy kliring markazining pul mablag‘lari tijorat banklari depozitlariga **3 (uch) oydan 12 (o‘n ikki) oygacha** bo‘lgan muddatga joylashtiriladi.

4) Depozitlar bo‘yicha foiz daromadlar to‘lovi **har oyda** amalga oshiriladi.

5) Yuqorida keltirilgan talablarga mos kelgan va barcha zarur ma’lumotlarni taqdim etgan tijorat banklari takliflarini saralashda asosiy mezon **taklif etilayotgan foiz stavkasining miqdori hisoblanadi.**

Tanlovda ishtirok etish istagi bo‘lgan tijorat banklari 2024-yil 14-noyabr (soat 12:00) ga qadar **tanlov muhrlangan konvertda takliflarini taqdim etishlari shart.**

Ko‘rsatilgan muddatdan so‘ng kelgan takliflar ko‘rib chiqilmaydi.

Aloqa uchun telefonlar: +998 55 501-33-02.
E-mail: info@uzce-ncc.uz

Direktor **A. Nagayev**

Ijrochi: O.E. Umurzakov
Tel: (55) 501-33-02 ichki:114